

## TIL O'RGATISHGA OID O'YINLAR VA ULARNING DARSDA QO'LLANISHI

Bazarbayeva Zahro  
O'zMU talabasi.

**Annotatsiya:** So'nggi yillarda chet tillarini o'rganishga va o'qitishga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada oshib bormoqda. Bu esa chet tili darslarini, xususan, ingliz tili fanini qiziqarli qilib o'tishni ya'ni turli innovatsion metodlardan, texnik vositalardan, turli xil o'quvchini jalg qiluvchi, interfaol o'yinlardan foydalanishni taqozo etmoqda. Dars davomida bunday o'yinlardan foydalanish o'quvchining fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshiradi. Ushbu maqolada fransuz va ingliz tillarini o'yinlar orqali o'rganish metodlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** chet tili, o'yinlar, darslar, metodlar.

**Аннотация:** В последние годы внимание к изучению и преподаванию иностранных языков значительно возрастает. Для этого необходимо сделать уроки иностранного языка, особенно английского, интересными, то есть использовать различные инновационные методы, технические средства, интерактивные игры, которые привлекают разных учащихся. Использование таких игр на уроке повышает интерес школьника к изучению науки. В данной статье описаны методы изучения французского и английского языков посредством игр.

**Ключевые слова:** иностранный язык, игры, уроки, методы.

**Annotation:** In recent years, attention to the study and teaching of foreign languages has increased significantly. To do this, it is necessary to make foreign language lessons, especially English, interesting, that is, use various innovative methods, technical means, and interactive games that attract different students. The use of such games in the classroom increases the student's interest in learning science. This article describes methods for learning French and English through games.

**Keywords:** foreign language, games, lessons, methods.

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etayotganligi sababli, tillarni nafaqat oliv ta'lif muassasalarida, maktablarda, shuningdek, maktabgacha ta'lif muassasalarida ham o'rgatilmoxda. Darslarda o'ziga xos usullar, qiziqarli metodlar bilan o'tilmasa, o'quvchilarni darsga jalg qilish biroz murakkab vazifaga aylanishi mumkin. Agarda darslarda an'anaviy usullardan kechilsa, qiziqarli qilib olib borilsa bu nafaqat dars sifatini ta'minlaydi, shu bilan birga zerikishni oldini olib, passiv o'quvchilarni ham darsda ishtirok etishga jalg qiladi.

Fransuz va ingliz tilini o'rgatish jarayonida bir qator qiziqrli o'yinlar mavjud. Shuni aytib o'tish joizki, bolalarga til o'rgatishda shunday o'yinlardan oydalinish kerakki, unda barcha o'quvchilar birdek ishtirok etishsin hamda darsadan yangilik olishsin (masalan yangi lug'atlar yodlab ketishi mumkin, har kuni shu jarayon takrorlansa, o'quvchining lug'at boyligi yuqori darajaga ko'tariladi). O'quvchilarga darsni grammamatik tushunchalar bilan boshlash noorindir, ayniqsa kichik sinf o'quvchilarini tezda zerikishiga sabab bo'ladi. Natijada dasrga bo'lgan qiziqish so'nishi mumkin. Ular bilan hattoki salomlashish jarayonini ham noan'anaviy tarzda boshlash kerak, masalan, o'qituvchi kirishi bilan darsni qandaydir salomlashishga oid fransuzcha qo'shiq

bilan boshlash (asosan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mativatsion usuldir)usuli samarali usuldir. Shu tariqa dars davom etsa, o'quvchilar dars davomida ha bir topshiriqqa bo'lgan e'tiborini yo'qotishmaydi. Xattoki ular fransuz tili darslarini intizorlik bilan kutishadigan bo'lishadi. Albatta, bularning barchasini o'qituvchi tashkillashtirishi kerak va bu pedagogning zimmasida. Shunday ekan chet tilini o'rganishni qiziqarli qilish uchun ba'zi o'yin turlarini keltirib o'tish mumkin

Fransuz va ingliz tillari darslarining samaradorligini oshirish uchun, Rolli o'yinlari"dan foydalnish mumkin. Bu o'yinning afzallik tomonlari shundaki, bu vaziyatdan kelib chiqib o'ynaladi. Bu o'yin nafaqat fan o'rganilishi uchun foydali, shu bilan birga aqliy qobilyatni shakllantirishga ham yordam beradi. Bu o'yinda mavzular tanlab olinib, bolalar dialoglar tashkil qilishadi. Masalan, yo'lovchining taksini to'xtatgan jarayonidagi suhbat, yoki kiyim do'konlaridagi muloqotlar - bularning barchasini fransuz tilida ham gapirib, ham ko'rsatib berishadi. Aynan shu o'yinda, guruh bilan ishslash taktikasini qo'llasak ham bo'ladi, ya'ni o'quvchilarni guruhlarga ajratib turli mavzularni bo'lib berish. Bu holatda raqobatlashuv ham vujudaga keladi. Raqobat-yuksalish mezonidir . Topshiriqni yaxshi bajargan guruh rag'batlantirilsa, qolgan o'quvchilarning intilishi ham kuchayadi. Bundan tashqari, fransuz tili darslarini mazmunli o'tkazish uchun didaktik o'yinlardan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir .

OBJECT- bu o'yin o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Bizga ma'lumki, chet tili fanlarini o'rganishdagi eng muhim yo'nalish bu yangi so'zarni yod olishdir. O'quvchilarning xarakterlarini hisobga olsak, har bir o'quvchi o'z usulida lug'at yodlaydi. Shunga ishonchimiz komilki, o'yinlar orqali yangi so'zlarni yodlash hammaga mos keladi va bu jarayonni yengillashtiradi. Yuqorida aytib o'tgan o'yinimizda, dars paytida sinf xonadagi 15 ta buyum stol ustiga qo'yiladi va o'quvchilar kelib bu buyumlarni ko'zdan kechirishadi. Buyumlarning usti yopib qo'yiladi va so'ogra o'quvchilar ko'rgan narsalarini, ma'lum vaqt davomida ingilizchasini doskaga yozishlari kerak. Eng ko'p so'zni to'g'ri yoza olgan o'quvchi g'olib bo'ladi. Shu o'yinning sifatini ta'minlash maqsadida shuni ayta olamanki, shu vaziyatning o'zida qolgan, ishtirok etmagan o'quvchilarni ham darsga jalb qilish uchun, ularga shu buyum nomlariga bittadan gap tuzish toshirig'i berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi va bu befarqlikning oldini ham oladi.

Taboo words o'yini (Ta'qiqlangan so'zlar) - bu qiziqarli o'yin o'quvchilarga sinonim so'zlar va ularning tariflarini qo'llashda yordam beradi. Sinonimlardan foydalanish nutqning ravonligi, so'zlashuvning chiroyli bo'lishini ta'minlaydi. Ayniqsa ingliz tili fanida so'z qo'llash bilan bog'liq xatolikga yo'l qo'ymaslik kerak, chunki ingliz tilidagi ko'plab bir xil ma'noni anglatuvchi so'zlar, gap mazmuniga ko'ra foydalaniladi. Aynan ushbu o'yin shu jihatda ehtiyyotkor bo'lishga yordam beradi. Bunda guruhlar tashkil qilinadi, ya'ni o'quvchilar qarama-qarshi holda o'tiradilar. Har bir jamoa o'z jamoasidan bir kishini ro'parasidagi stulga o'tirishi uchun tanlaydi. O'qituvchi esa o'quvchilar ortiga o'tib katta qog'ozda yozilgan so'z ushlab turadi. O'rindiqda o'tirgan o'quvchilar bu so'zni ko'ra olmasligi kerak bo'ladi. Jamoaning o'rindiqda o'tirgan a'zosiga o'qituvchi ushlab turgan so'zni ayttirish uchun biroz vaqt bo'ladi.

Chet tilida olib boriladigan o'yinlar yoki o'yin uslubidagi mashqlarning barchasi so'zlarining sehrli olamiga yo'l ochib beradi. Shunig uchun haqiqiy chet tili o'qituvchisi bo'laman degan har bir inson ijodkor bo'lmos'h'i kerak deb o'layman, ya'ni har doim bir xil o'yinlardan foydalanavermasdan o'quvchilar bilimiga moslab, ularning so'zlarini har safar o'zgartirib, maqbulini tanlab, yangilarini yaratib va umuman shu o'yinlar yordamida darsni yanada qiziqarliroq va maroqliroq qilish mumkin. Bunaqa darslarda va to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilar hech qachon zerikib qolmaydi va darsga to'liq qatnashadi shu bilan birga navbatdagi darsni orziqib kutadi.

Jamoa o'yinlari ancha murakkab bo'lib, o'quvchilar lug'atlardan foydalanishi mumkin. Lekin bu o'yinlarni o'tkazish uchun maxsus qo'llanmalar talab qilinmaydi. O'yin ishtirokchilariga esa qog'oz va qalam kerak bo'ladi.

«Birgalikda o'qiyimiz» texnikasidan foydalangan holda guruhlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishi:

1. Bilim darajasiga qarab 3-5 kishidan iborat bo'lgan har xil turdag'i guruhlar tuziladi.
2. Har bir guruhg'a bitta topshiriq beriladi.
3. Har bir guruh ichida umumi topshiriq taqsimlanadi.
4. Hamma yakkatartibdagi topshiriqn'i bajaradi.
5. Barcha guruh a'zolarining mini-ma'ruzalarini tinglanadi. Umumiy natijani shakllantiriladi va uni taqdimotga tayyorlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'yinlardan foydalanishda ularni bolalarning bilimiga va yoshiga qarab o'zgartirishimiz, ya'ni osonlashtirish yoki murakkablashtirishimiz mumkin. Ushbu yuqorida keltirilga o'yinlarning maqsadi o'quvchilarining xotirasini kuchaytirish, aqliy salohiyatini oshirish, tezkorlik, ziyraklik, yangi so'zlarni oson esda saqlash va eng asosiysi darsni mazmunli tashkil qilishdir. Bugungi kunda ta'lif jarayoni asosan an'anaviy tarzda olib borilayotgan bo'lsada, ta'lif tizimining barcha bosqichlarida chet tillarini uzlusiz o'rganishni tashki qilish, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlash yanada takomillashtirlishni taqozo etadi. Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiyalari bilan ta'lif berishning ilg'or uslublarni joriy etish yo'li bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni shu o'rganayotgan tillarining mutaxasisi bulishi va buning negzida ular shu tillarda bemalol so'zlash olishlari maqsadga muvofiqdir. Zero, barchasi yoshlarimizning buyuk kelajagi, yurtimiz ravnaqi uchundir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov J.J. Chet tilo'qitishmetodikasi. T.:2012.
2. Xoshimov O', I. Yoqubov. Ingliz tili o'qitish metodikasi T.: 2003 y.
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/til-o-qitishda-o-yin-metodidan-foydalanish>
4. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." Академические исследования в современной науке 2.17 (2023): 165-169.
5. И ногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги" Academic research in educational sciences 3.5 (2022): 1176-1182.
6. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 879-884.
7. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023,[1/4] (2023).
8. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection In French Phraseology." Journal of Positive School Psychology (2022): 2883-2889.
9. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." Конференции. 2021.
10. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek

- Phraseology." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
11. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into "Historical Memory" in French and Uzbek Linguistic Traditions." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
12. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
13. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 2.11 (2023): 490-492.